

## TALABALARING MADANIYATLARARO MULOQOTINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLAR.

Saburova Saodat Athamovna-talaba

*Ilmiy rahbar: Ismillova Zaripa Abduqaxxorovna*

*Ingliz tili integrallashgan kursi 3 kafedrasи,*

*Ingliz tili 3-fakulteti, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

[zarifaismoilova94@gmail.com](mailto:zarifaismoilova94@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada muallif tomonidan inson turli xil madaniyatni o‘rganish orqali o‘zining jamiyat ichidagi muloqotini shakllantirish, insoniy fazilatlarini takomillashtirish va tushunish orqali bugungi davrda muhim bo‘lgan ba’zi bir fazilatlarga ega bo‘lishi mumkinligi yoritilgan. Mana shu muhim omillar – shaxslararo muloqotga talabalarning tayyorlashda e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan ba’zi usullardan foydalanish orqali kutilgan samaradorlikka erishish mumkinligi haqida aytib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** *tillarni o‘qitish va o‘rganish, madaniyatlararo muloqot, madaniyat, nutq, antropologiya, zamonaviy ta’lim, ijtimoiy ko‘nikma shakllantirish.*

**Аннотация:** В данной статье автор объясняет, что человек может приобрести некоторые качества, важные в современную эпоху, изучая разные культуры, формируя свое общение внутри общества, совершенствуя и понимая свои человеческие качества. Вот некоторые важные факторы, которые следует учитывать при подготовке студентов к межличностному общению.

**Ключевые слова:** *преподавание и изучение языка, межкультурная коммуникация, культура, речь, антропология, современное образование, социальные навыки.*

**Abstract.** In this article, the author explains that a person can acquire some qualities that are important in the modern era by studying different cultures, forming their communication within society, and improving and understanding their human qualities. In this article, the author explains that a person can acquire some qualities that are important in the modern era by studying different cultures, forming their communication within society, and improving and understanding their human qualities. Here are some important factors that should be taken into account when preparing students for interpersonal communication.

**Keywords:** *teaching and learning languages, intercultural communication, culture, language, anthropology, modern education, social skills.*

**Kirish.** Oliy ta’limda shaxs rivojlanishining eng muhim omillarining biri bu – talabalarning muloqot madaniyatidir. Avvalambor bu ikki tushunchaga ta’rif berib o’tsam. “Madaniyat” - tushunchasi hammada har xil shakllanganini hisobga oladigan bo‘lsak, unga bitta qilib ta’rif berganda, Madaniyat - bu inson faoliyati va shu faoliyatining ahalyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat – musiqa,

adabiyot, badiiy tasvir, me'morchilik, teatr, kinomatografiya, turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin. Antropologiya “madaniyat” atamasi ostida mahsulotlar va ularni ishlab chiqarish, estetik ma'no berish hamda shu jarayonlarga bog'langan ijtimoiy munosabatlar tushuniladi. Bu ma'noda madaniyat o'z ichiga san'at, fan va ma'naviy tizimlarni oladi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi. Inson bu madaniyat tushunchasini anglash, tushunish va sintez qilish orqali ularda ko'nikma paydo bo'ladi.

“MULOQOT”- inson muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba orttiradi, ta'lim va tarbiya, turli munosabatlar ta'sirida barkamol shaxs sifatida shakllanadi va rivojlanadi. Inson jamiyatdan va shaxslararo bo'ladigan o'zaro muloqotidan ajratib qo'yish uni shaxs sifatida shakllanishga to'siq bo'ladi. Shuningdek atrof muhitdan uzilish kabi har xil muamolar yuzaga kelishi mumkin.

Oliy ta'limda intellektual soha mutahassisni va ta'limga ijodiy yondasha oladigan shaxsni rivojlantirishda muloqot madaniyati eng muhim resuslardan biridir .

Muloqot madaniyatni rivojlantirish oliy ta'lim talabasini universal xususiyatlarni egallashda, jamiyatning ijtimoiy talablarini qondirishga va yuqori professional bilimlarini egallashga yordam beradi. Aslida ham hozirgi zamonaviy ta'limning maqsadi – sifatli kadrlar taylorlash, talabani shaxs sifatida rivojlantirish va uning (MEN) ligini yuqori darajaga olib chiqishdir. Professional kadrda muloqot madaniyati nuqsonsz bo'lishi va ko'nikma bo'lishi lozim va talab etiladi. Oliy ta'limda har bitta o'tilyotgan FALSAFA va PSIOLOGIYA darslariga talabani ko'proq jalb qilish va berilyotgan ma'ruzalarning sifati talabaning yetuk holatga chiqartilishga katta e'tibir qaratilishi kerak. Taraqqiy e'tyotgan zamonaviy ta'lim metodining keng qamrovli jihatlari ta'lim tizimida qo'laniplib kelmoqda. Misol uchun L.N.Kulikova, A.V.Molojavenko, V.N.Myasichevlar o‘z ishlarida muloqotning talaba shaxsini rivojlantirishdagi ahamiyatiga katta baho bergenlar. Psixologlar shaxsning muloqot imkoniyatini aniqlash maqsadida quyidagi savollar bilan murojaat qilganlar. «Nima uchun muloqot qilish kerak?». Mazkur savolga quyidagicha javob olganlar: «muloqot kishilar orasida umumiylikni tarkib toptiradi, ularning birgalikdagi faoliyatini boshqaradi, bilish usuli sifatida namoyon bo'ladi, alohida shaxslarni bilish asosi sifatida xizmat qiladi. Shu tariqa muloqot, shaxsning o‘z-o‘zini aniqlashiga xizmat qilib, uning hamkorlikdagi faoliyatga kirishishini ta'minlaydi va muloqot sub'ektlari orasida o‘zaro hamkorlik muhitini vujudga keltiradi». Nima uchun muloqotga kirishish kerak, degan savolga javob berishdan avval biz muloqotga jalb qiladigan odatlar, ehtiyojlar, ko'nikmalar mavjudligini unutmasligimiz lozim. Turli umumiylorra uyg'unlashar ekan inson bu jarayonda u muloqotning ob'ekti va sub'ekti sifatida namoyon bo'ladi. Muloqot jarayonida shaxs o‘zida atrofdagilarning muayyan ta'sirini his etadi. O‘z navbatida uning o‘zi ham muloqot jarayonida ularga muayyan ta'sir ko'rsatadi. Muloqot insonning ijtimoiy, ongli mavjudot sifatidagi ehtiyoji hisoblanadi. Muloqotni ikki yoki undan ortiq odamlar o'rtasidagi axborot almashinuvni deb ta'riflash mumkin. U odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida yetakchi o'rinn egallab,

insondagi eng muhim ehtiyojni qondiradi. Shuning uchun ham uning har bir inson uchun ahamiyati kattadir. Har bir shaxsning jamiyatda bajaradigan faoliyatlar ozaro munosabat va o‘zaro ta’sir shakllarini qamrab oladi. Chunki har qanday ish odamlarning bir-birlari bilan til topishishni, bir-birlariga turli xil ma’lumotlarni uzatishni, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan orni, ishlarining muvaffaqiyati, obrosi uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bogliqidir. Bir qarashda osongina tuyulgan shaxslararo muloqot aslida juda murakkab jarayon bolib, unga odam hayoti mobaynida o‘rganib boradi. Shaxslararo muloqot funksiyalarini amalga oshirish – muloqot sub’yektining ma’naviyaxloqiy ko’rsatmalari, shuningdek, insonparvarlik, emotsiyal-ijobiylari, shaxsiy yondashuv, individuallik va o‘ziga xoslik kabi yo’nalishlar bilan belgilanadi.

Muloqot funksiyasi faqat muloqot sub’yektlarining ma’naviy-axloqiy yo’nalishigina emas, balki ko‘p jihatdan, uning insonparvar-axloqiy mazmuniga bog’liq bo’ladi. Muloqotning shakli, lahzali, tasodifiy, tematik, rejallashtirilgan – bayon etish, axborot, xabar, suhbat, suhbatlashish, gaplashish, munozara kabilrdan iborat. E’tibor berish, qiziqish, ma’qullah, hamdardlik, istiqbolni ko’ra bilish yordamida ta’sir ko’rsatish, tushunilgan va anglab yetilgan motivatsiya asosidagi faoliyat kabilar muloqot turiga kirib, masalani hal etishga yo’naltirish, emotsiyal muhit yaratish, rag’batlantirish, yo’naltirish bilan hamkorlikdagi harakatlar yakunini yasashga yo’naltirish, shuningdek, muloqotning samaraliligi, uning mavzusiga ijobiy motivatsiyasi, e’tibori, qiziqishiga bog’liq bo’ladi. Motivatsiya muloqot jarayonining boshqaruvchisi sifatida ma’no, onglilik, ishonch va qat’iylikni talab qiladi. Muloqotning ma’noli jihatlariga uning maqsad hamda umumiylikka erishishda o‘z individuallagini ko’rsatishi, shuningdek, muloqotning turli funksiyalaridan foydalanish – qo’zg’atuvchi, ekspressiv, tashkiliy, informative, emotsiyali, dalilga asoslanganligi va boshqalarni kiritish mumkin. Shaxslararo yuzma-yuz muloqotlarda insonning potensial-shaxsiy, kasbiyehtiyojli hamda amaliy-idrok etish jarayoni sodir bo’ladi.

Yuqorida aytib o’tilganidek shaxslararo muloqotda aniqlik bilan birga til bilish ko’nikmasi ham kerak bo’ladi. Siz tillarni o‘rganish jarayonida tabiiyki o’sha til vakillarining madaniyati va ularning a’nalarini ham birqalikda o’rganasiz va bu orqali siz boshqa til vakillari bilan ham aloqa o’rnatasiz. Asil negiz ham bizning til ko’nikmamizdadir, ya’ni har bitta o’zga til vakilining o‘ziga yarasha qarashlari mavjud bo’lganidek biz ularni o‘rganish orqali ularga qay holatda munosabat bildirishimiz haqda ham ko’nikma hosil qilishimiz ham daturli millatar o’rtasidagi mavjud to’siq vachegaralarni bartaraf etishga yer yuzidagi yashovchi barcha xalq vakillarining bi birlarini tog’ri tushunishlariga, hamjihatlik va o‘zaro murosada yashashlariga ham xizmat qiladi. Shu sababdan, ingliz tilini o’rgatishda va o‘rganishda ingliz tilida o’zlashuvchi barcha davlatlarda yashovchi xalqlarning urf-odatlarining xilma-xil ekanligini, masalan, Buyuk Britaniya va AQSHdagi madaniyat bir xil emasligi, fransuz tilini o‘rganishda esa Fransiya madaniyati, Kanada va Afrika davlatlari madaniyatlarini bir-biridan to’laligicha farq qilishligini e’tirof etishlik talab etiladi. Keltirilgan jumlalardan ayonki, madaniyat va

til tushunchalari yonma-yon va ajralmas tushunchalar hisoblanadi. Demak, tillarni o‘qitish va o‘rganishda madaniyatni o‘rgatish, urf-odat va an’analarni hisobga olish asosiy talablardan biridir. Barchamizga ma’lumki, hozirgi davrda chet tillarini o‘rganish nafaqat shaxsiy ehtiyoj, balki umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan hodisa deya e’tirof etilmoqda. Tilni bilish bu o‘scha tilda so‘zlashuvchi xalq vakillari bilan to‘liq muloqotga kirisha oladi, degani emas. Chunki, yuqorida ta’kidlaganimizdek, til va madaniyat, xalqning an’analari, kundalik turmush tarzi tilni o‘rganish, tilda gapirish va tilni tushunishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayonda esa madaniyatlararo muloqotni shakllantirish hozirgi kundagi tillarni o‘rganishda e’tibor qaratilishi muhim bo‘lgan omil hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki , talabalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishda albatta ularning psixologik portretlarini, temperament va xarakter xususiyatlarini o‘rgangan holda ularga muloqot madaniyatini rivojlantirish yo’llarining har bir turlarini qo’llab ko‘rish kerak. Har bir talabaning individual xususiyatlari har xil ularning motivlari ya’ni faoliyatga undovchi kuchlari ham turlichadir. Shuning uchun muloqot madaniyatini rivojlantirish mashqlari va treninglarining hammasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Talabalarda muloqot madaniyatini shakllantirishda ko‘plab metodlar bilan bir qatorda, savol-javob, suhbat hamda trening metodlari muhim ahamiyatga ega.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. M.Jumanova – til o‘rganish va madaniyatlararo muloqot. 2022-yil, 1-soni
2. M.Nabiyeva – muloqot va madaniyat tushunchasi, 2022-yil 2-soni
3. V.O.Nikonova - Formirovaniye kulturi obsheniya; ped.nauk-Bryansk-2001-yil 18 son